

## **SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENTSIYANI RIVOJLANTIRISHDA TOPSHIRIQQA ASOSLANGAN TIL O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-473-478>

**Dilafruz Muhamadjonovna Sarimsakova**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [dilafruz89@gmail.com](mailto:dilafruz89@gmail.com)

tel: +998913423913

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentsiyalarini mustaqil ta'lif jarayonida rivojlanirishda topshiriqqa asoslangan til o'qitish texnologiyalaridan fan mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib tashkil etish bosqichlari va xorij tajribalari va tavsiyalar yoritiladi.*

**Keywords:** task-based language teaching, future English teacher, independent learning, video lessons, 21st century teaching skills.

## **USE OF ASSIGNMENT LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE**

### **ABSTRACT**

*This article describes task-based language teaching technologies, the stages of organization and foreign experiences and recommendations in the development of sociolinguistic competencies of future English teachers in the process of independent learning, based on the content and essence of the course.*

**Kalit so'zlar:** topshiriqqa asoslangan til o'qitish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, mustaqil ta'lif, videodars, 21-asr ta'lif ko'nikmalari.

### **KIRISH**

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lif mazmunining sifat kategoriyasini yuqori bosqichga olib chiqish "amalda bo'lajak yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishda barcha oliy ta'lif yo'nalishlari qatorida filologik oliy ta'lif muxitida talabalarga zamonaviy axborot kommunikasiya, pedagogik texnologiyalar, turli yondashuvlar, metodlarni nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda tadbiq etish dolzarb ahamiyatga ega" [1] ekanligini ko'rsatmoqda.

O'rganilayotgan chet tilini muloqot tili sifatida turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda o'qitish ya'ni amerikalik olim Kler Kramsh tomonidan ilgari surilgan "ijtimoiylashuv yondashuvi" asosida tashkil etish, auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lif jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentsiyalarini rivojlantirishda innovasion pedagogik texnologiyalar integrasiyasi ijobiy natijalarga erishishga zamin yaratadi. "Bu yondashuv hozirda madaniyatlararo yondashuv nomi bilan yuritilib, keng ko'lamda amaliyotda joriy etilmoqda" [Shamuratova, 2021]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Chet tillarni o'qitishda madaniyatlararo yondashuv nuqtai nazaridan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentsiyasi bir qator kompetentsiyalarini birlashtiruvchi murakkab polimorf tushuncha sifatida qaraladi. "Sotsiolingvistik kompetentsiya eng muhim komponentlardan biri bo'lib, shaxsning kommunikativ maqsadi, niyati, ijtimoiy statuslari, kommunikantlarning roli va muloqot muhitiga sotsiolingvistik norma va muayyan milliy lingvokultural jamoaning munosabatini hisobga olgan holda muloqot vaziyatlariga etarlicha nutq xatti-harakatini tashkil etish qobiliyatidir [K.Risqulova,2017].

Ma'lumki, hozirgi chet tili o'qitish metodikasining 21 asr yondashuvlari va metodlari asosida fan mazmunidan kelib chiqib har bir mavzu uchun turli interfaol pedagogik ta'lif texnologiyalari jumladan, keys-stadilar, mantiqiy fikrlash va tezkor savol va javoblar, gruxlarda ishlash, taqdimotlar qilish, individual va jamoaviy loyihalar, o'yinlar, rolli o'yinlar, debat va muhokamalar, muammoni echimini izlash, aqliy mushohada, Klaster, vebkvestlar kabi interfaol ta'lif texnologiyalari keng foydalaniladi. "Interfaol (inter-bu o'zaro, act-harakat qilmoq) bilish va kommunikativ faoliyat" [Abrahmanova M, 2017].

Jumladan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentsiyalarini mustaqil ta'lif jarayonida rivojlantirish nuqtai nazaridan, kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan topshiriqqa asoslangan til o'qitish (Task-based language teaching (TBLT) texnologiyalaridan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

Topshiriqqa asoslangan til o'qitish metodi orqali talabalarni o'rganilayotgan tilda turli interaktiv topshiriqlarni auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lif jarayonida individual, sheriklikda, gruxda yoki jamoada faol ishtirok etishni rag'batlantiradi. Lingvist-pedagog olimlar D.Nunan (2004), Larsen (2000), Richard va Rojers (2001), Rod Elliz (2003), Villiz (2004), Liver va Kaplan (2004)

tadqiqotlarida topshiriqqa asoslangan til o'qitishni tashkil qilish, shakli, modeli o'rganilgan. Jumladan, D.Nunan (2004) va shuningdek, boshqa mutaxassislar tomonidan topshiriqlarni ikki turga: o'rganilayotgan tilda bajarishga mo'njallangan topshiriqlar va pedagogik topshiriqlarga ajiratilgan bo'lib, o'rganilayotgan tilda bajarishga mo'njallangan topshiriqlar auditoriyadan tashqarida va jonli vaziyatda biror bir topshiriqni bajarishni anglatadi; pedagogik topshiriqlar esa talabalarning auditoriyada o'rganilayotgan til vositasida topshiriqlarni bajarishga ishora qiladi [Nunan, 2004]. Rod Elliz topshiriqlarni to'rtta asosiy xususiyatlarini aniqlaydi: 1) topshiriq birlamchi e'tiborini (pragmatik) ma'noga qaratadi; 2) topshiriqda tushirib qoldirilgan (gap) ma'no-mazmun to'ldiriladi. (Prabxu uch turdag'i tushirib qoldirilgan ma'no-mazmunni ifodalovchi topshiriqlarni aniqlaydi: tushirib qoldirilgan axborot (information gap), tushirib qoldirilgan sabab (reasoning gap) va tushirib qoldirilgan fikr (opinion gap); 3) ishtirokchilar topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan sotsiolingvistik resurslarni tanlaydilar. 4) topshiriqni bajarish natijasida aniq asoslangan natijaga erishiladi. Villiz (1996), Pika (1993) pedagogik topshiriqlarni olti turga: jigso'v, (jigsaw), tushirib qoldirilgan axborot (information gap), muammoni echimini topish (problem-solving), qaror qabul qilish (decision-making), fikr almashish (opinion exchange tasks) topshiriqlarga ajiratadi.

Topshiriqqa asoslangan til o'qitishda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining sotsiolingvistik kompetentsiyasini rivojlantirishda:

- Topshiriqlar o'rganilayotgan tilda kommunikativ maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi; Villiz, (2004).
- Topshiriqlar talabalarga motivasiya berishi va qiziqarli bo'lishi; Liver va Kaplan (2004);
- Topshiriqlar ma'lum muammo/ jumbojni echimini topish, xaritani olib aniq yo'nalish ko'rsatish, telefonda so'zlashish, xat yozish, qo'rsatma asosida o'yinchoqni yig'ish kabi Real kommunikasion vaziyatlarga tayyorlashi; Richard va Rojers (2001:177)
- Topshiriqlar talabalarning sotsiolingvistik kompetentsiyalarini rivojlantirishga ijodiy va erkin muhit yaratishi; Richard va Rojers (2001:185)

Darhaqiqat, tadqiqotimiz jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentsiyalarini topshiriqqa asoslangan til o'qitishda qator interfaol texnologiyalari aniqlandi.

Videodars - interfaol o'qitish usullaridan biri bo'lib, u ikki turdag'i video yozuvlardan foydalanishni o'z ichiga oladi:

1) tayyor video materiallarni ko'rsatish (autentik, o'quv maqsadlari uchun mo'ljallanmagan yoki til o'rganuvchilar uchun metodistlar tomonidan maxsus yaratilgan);

2) talabalar tomonidan bajariladigan rolli vazifalarni yozib olish, uni ko'rib chiqish va tahlil qilish [Panfilova, 2009].

Autentik videoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu chet tilining mintaqaviy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini ko'rsatadigan butun syujet yoki alohida epizodlar mavjud bo'lib, bunday imkoniyat talabalarga urf-odat va an'analar, jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi haqida bilim toplash imkonini beradi; video-hikoya, ijtimoiy va madaniy vogeliklarni o'z mamlakati vogeligi bilan tushunish, tahlil qilish va solishtirish, bu esa tili o'rganilayotgan mamlakatlarning madaniyatiga nisbatan bag'rikenglik, tolerantlik munosabatini shakllantirishga olib keladi.

Videoda ko'rsatilgan har bir jonli kommunikativ vaziyat barcha turdag'i og'zaki (tilning so'zlashuv shakllari, dialekt, sosiolect) va noverbal (tana tili) aloqaning tegishli sohalariga, registrlarga, ijtimoiy munosabatlarga mos keladigan vositalar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Talabalarga kundalik muloqotning ijtimoiy belgilangan lingvistik va nolingvistik vositalarini toplash yoki ulardagi malaka darajasini aniqlash imkonini beruvchi topshiriqlar beriladi. Videomaterial bilan ishslash jarayonida talabalar taqdim etilgan syujetni tushunishi uchun ularning lingvistik qobiliyatini shakllantirishni rag'batlantiradigan va idrok etishni osonlashtiradigan beixtiyor, majoziy, semantik, hissiy kabi xotira turlari ishtiroy etishi ham muhimdir. Bu esa ularning audiovizual vositalar bilan ishslash jarayonida qo'rquvining psixologik to'sig'ini engib o'tishga va o'quv jarayonini yanada samarali qilishga imkon beradi.

## **XULOSA**

Chet tili darslarida autentik videolarning motivasiyon salohiyati ham muhimdir. Ushbu uslubiy vosita kundalik hayotdagi kommunikativ vaziyatlar bilan ifodalangan jonli til muhitida mavjud vaziyatlarni o'rganishga imkon beradi, bu esa o'quvchilarni o'rganilayotgan tildan Real sharoitlarda foydalanishga tayyorlaydi. Videolarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga asoslangan muammoli vaziyatlarni sharhlash va muhokama qilish, qo'shimcha ma'lumotlarni topish va ularni guruh bilan baham ko'rish natijasida, talabalarda dunyoqarash, axloqiy va estetik tarbiya shakllanadi, shuningdek lingvistik ma'lumotlarni (verbal va noverbal aloqa vositalari), ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda qo'llashga rag'batlantiradi.

## REFERENCES

1. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi
2. Shamuratova G. Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo yondashuv //til va adabiyot ta'limi jurnali. 2021 (2) 40-41 betlar
3. Abrahmanova M. Innovasion texnologiyalar va bilimlarni baxolash. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to'plami. Toshkent 2017, 4 may. 12-13 bet
4. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press.
5. Nunan, David (2004). *Task-based Language Teaching*. New York: Cambridge University Press. pp. 1–16. [ISBN 978-0-521-84017-0](#).
6. Willis, J. (1996). A framework for task-based learning. Harlow: Longman.
7. Riskulova, K.D (2017) DSc dissertation “System of formation of sociolinguistic competence of future English language teachers// T.
8. Leaver B.L., Ehrman M., Shekhtman B. Achieving success in second language acquisition // Cambridge University Press, 2005.p.265
9. Byram, M.; Gribkova, B.; Starkey, H. Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching: A Practical Introduction for Teachers; Council of Europe: Strasbourg, UK, 2002.
10. Richards, Jack C and Theodore Rodgers . 2001. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd edition). New York: Cambridge University Press.
11. Ritchie, M. (2011). Developing sociolinguistic competence through intercultural online exchange. In S. Thouësny & L. Bradley (Eds.), Second language teaching and learning with technology: views of emergent researchers (pp. 123-141). Dublin: Research-publishing.net.
12. Панфилова А.П. Инновационные педагогические технологии: Активное обучение: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2009. 192 с.
13. Sarimsakova, D. (2021). Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини ривожлантириш долзарб педагогик муаммо сифатида . Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/fll/article/view/1013>
14. Khasanova, G. K. (2014). MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND VOCATIONAL TRAINING IN THE WORLD. The Way of Science, 68.

- 
15. Khasanova, G. K. (2021). THE SUCCESS AND EDUCATION SYSTEM OF SOUTH KOREA AND JAPAN. Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материа, 94.
  16. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
  17. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
  18. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想 "CHINESE DREAM" AND 美 命 运 共 同 " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"-A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
  19. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
  20. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.